



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD, dots. P.Lutfullayev, PhD, dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi asosida chop etiladi. Jurnal Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan. UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

UDK: 37.013:378.14

PEDAGOGIK TA'LIM TIZIMIDA KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IMKONIYATLARI

Xonbabayev Shoxruxbek Dilshodjon o'g'li

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.v.b. dotsent

Qo'qon davlat universiteti

e-mail: xanbabayev1221@gmail.com

ORCID: 0000-0001-6499-7055

Annotatsiya. Maqolada pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilingan. «Kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalari qiyosiy o'rganilib, bo'lajak o'qituvchi kasbiy kompetentligining olti komponentli tuzilmasi asoslangan. Tadqiqot doirasida kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari me'yoriy-tashkiliy, mazmuniy, texnologik, amaliyot-integrativ va baholash-refleksiv guruhlarga tasniflanib, ularni ro'yobga chiqarish mexanizmlari hamda pedagogik shart-sharoitlari ochib berilgan. Tajriba-sinov natijalari imkoniyatlarni kompleks tarzda qo'llash talabalar kompetentligi darajasini sezilarli oshirishini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: kompetentlik, kompetensiya, pedagogik ta'lim, bo'lajak o'qituvchi, kompetentlikka yo'naltirilgan yondashuv, mikro-o'qitish, portfolio, mezonli baholash, refleksiya, ta'lim klasteri.

ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНТНОСТИ В СИСТЕМЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье анализируются возможности развития профессиональной компетентности будущих учителей в системе педагогического образования. На основе сравнительного изучения понятий «компетенция» и «компетентность» обоснована шестикомпонентная структура профессиональной компетентности будущего педагога. Возможности развития компетентности классифицированы по пяти группам: нормативно-организационные, содержательные, технологические, практико-интегративные и оценочно-рефлексивные; раскрыты механизмы и педагогические условия их реализации. Результаты опытно-экспериментальной работы подтверждают, что комплексное использование данных возможностей существенно повышает уровень компетентности студентов.

Ключевые слова: компетентность, компетенция, педагогическое образование, будущий учитель, компетентностный подход, микрообучение, портфолио, критериальное оценивание, рефлексия, образовательный кластер.

OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING COMPETENCE IN THE PEDAGOGICAL EDUCATION SYSTEM

Abstract. *The article analyses the opportunities for developing the professional competence of future teachers within the system of pedagogical education. Based on a comparative study of the notions of «competence» and «competency», a six-component structure of the future teacher's professional competence is substantiated. The opportunities for competence development are classified into five groups – regulatory-organisational, content-related, technological, practice-integrative and assessment-reflective – and the mechanisms and pedagogical conditions of their implementation are revealed. The results of the experimental work confirm that the integrated use of these opportunities significantly raises students' level of competence.*

Key words: *competence, competency, pedagogical education, future teacher, competence-based approach, microteaching, portfolio, criteria-based assessment, reflection, educational cluster.*

KIRISH

Bugungi kunda jahon ta'lim maydonida pedagog kadrlar tayyorlash sifati mamlakat taraqqiyotining strategik omili sifatida e'tirof etilmoqda. Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligi, pirovard natijada, o'qituvchining kasbiy salohiyati, uning o'zgaruvchan sharoitlarda mustaqil qaror qabul qila olish, bilimni amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyati bilan belgilanadi. Aynan shu bois so'nggi o'n yilliklarda pedagogik ta'lim paradigmasi «bilim, ko'nikma va malaka»ga asoslangan an'anaviy modeldan kompetentlikka yo'naltirilgan modelga o'tmoqda.

O'zbekiston Respublikasida bu jarayon davlat siyosati darajasida mustahkamlangan. «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun, «O'zbekiston – 2030» strategiyasi hamda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan konseptual hujjatlarda pedagog kadrlarning kasbiy kompetentligini oshirish, ta'lim mazmunini natijaga yo'naltirilgan tarzda qayta qurish, o'quv jarayoniga xalqaro tajribani joriy etish vazifalari belgilangan. Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimining joriy etilishi, o'quv rejalarining tayanch va kasbiy kompetensiyalar asosida loyihalanishi, pedagogik amaliyot hajmining kengaytirilishi bu yo'nalishdagi amaliy qadamlardir.

Shu bilan birga, amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, kompetentlik yondashuvining me'yoriy hujjatlarda e'lon qilinishi bilan uning o'quv jarayonida real amalga oshirilishi o'rtasida sezilarli tafovut saqlanib qolmoqda. Ko'pchilik hollarda ta'lim natijalari

kompetensiyalar tilida ifodalanadi, biroq ularga erishish va ularni baholash mexanizmlari an'anaviy, reproduktiv xarakterni saqlab qoladi. Talaba egallagan nazariy bilimlarni kasbiy vaziyatga ko'chira olmasligi, refleksiv va kommunikativ ko'nikmalarning yetarli shakllanmaganligi, raqamli vositalardan metodik maqsadda foydalanish tajribasining cheklanganligi bo'lajak o'qituvchi tayyorgarligidagi eng ko'p uchraydigan kamchiliklar sirasiga kiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi — pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarning kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslarini umumlashtirish, mavjud imkoniyatlarni tizimli tasniflash va ularni amalda ro'yobga chiqarishning tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarini asoslashdan iborat. Tadqiqot ob'ekti sifatida oliy pedagogik ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayoni, predmeti sifatida esa ushbu jarayonda kompetentlikni rivojlantirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari olindi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

«Kompetentlik» va «kompetensiya» tushunchalarining ilmiy muomalaga kirib kelishi XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. N.Chomskiyning tilshunoslikdagi «lingvistik kompetensiya» tushunchasi (1965) inson bilimining yashirin, ichki tizimi bilan uning nutqiy faoliyatda namoyon bo'lishini farqlash imkonini bergan bo'lsa, D.Xayms kommunikativ kompetensiya nazariyasini ilgari surib, til birliklarini bilishning o'zi yetarli emasligini, ularni ijtimoiy kontekstga muvofiq qo'llay olish zarurligini asosladi. D.MakKlellandning 1973-yildagi mashhur maqolasi esa kasbiy muvaffaqiyatni an'anaviy intellekt testlari emas, balki real faoliyatda namoyon bo'ladigan kompetensiyalar bashorat qilishini ko'rsatib berdi va bu g'oya kadrlar tayyorlash amaliyotida burilish nuqtasi bo'ldi.

J.Ravenning tadqiqotlarida kompetentlik motivatsion, affektiv va kognitiv komponentlarning yaxlitligi sifatida talqin etiladi: inson faqat o'zi qadrli deb bilgan faoliyatda haqiqiy kompetentlik namoyon qiladi. Bu qarash kompetentlikning shaxsiy-

qadriyatli tabiatini ochib berdi. Yevropa Kengashi doirasida V.Xutmaxer tomonidan taklif etilgan besh guruh kalit kompetensiyalar (siyosiy va ijtimoiy, madaniyatlararo, kommunikativ, axborot bilan ishlash, uzluksiz o'rganish) esa kompetentlikning ta'lim natijasi sifatidagi me'yoriy modeliga asos soldi.

Rus pedagogikasida A.V.Xutorskoy kompetensiyani shaxsga nisbatan tashqi, ijtimoiy talab (norma) sifatida, kompetentlikni esa shu normaning shaxs tomonidan o'zlashtirilgan, tajribada sinalgan ko'rinishi sifatida farqlaydi. I.A.Zimnyaya kompetentlikning tarkibida tayyorlik, bilim, tajriba, qadriyatli munosabat va emotsional-irodaviy boshqaruv kabi komponentlarni ajratadi. E.F.Zeer kasbiy kompetentlikni kasbiy rivojlanishning bosqichli jarayoni bilan bog'lab o'rganadi. L.Shulman esa pedagogik kompetentlikning o'ziga xos yadrosi sifatida «predmetning pedagogik bilimi» (pedagogical content knowledge) tushunchasini kiritdi: o'qituvchi fanni bilishi bilan uni o'rgatishni bilishi turli, biroq uzviy bog'liq bilim sohalaridir.

Zamonaviy xalqaro tajribada pedagog kompetentligining me'yoriy modellari ishlab chiqilgan: AQShda InTASC standartlari, Yevropa Ittifoqida o'qituvchilar uchun raqamli kompetentlik doirasi (DigCompEdu), Tuning loyihasi doirasidagi kompetensiyalar ro'yxati shular jumlasidan. L.Darling-Xemmond o'qituvchi tayyorlashda nazariya va amaliyotning uzviy integratsiyasi, klinik amaliyotning uzaytirilishi hamda mentorlik tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini empirik dalillar bilan asoslaydi. OECD tomonidan o'tkazilgan TALIS tadqiqotlari natijalari o'qituvchining o'z samaradorligiga ishonchi (self-efficacy) va uzluksiz kasbiy rivojlanishda ishtiroki bilan o'quvchilar yutuqlari o'rtasida barqaror bog'liqlik mavjudligini ko'rsatmoqda.

O'zbekistonlik olimlardan N.A.Muslimov va uning shogirdlari kasbiy ta'lim o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyalarini ishlab chiqqan; M.H.Usmonboyeva, R.X.Ishmuhamedov tadqiqotlarida interfaol va innovatsion pedagogik texnologiyalarning kompetentlikni rivojlantirish vositasi sifatidagi

imkoniyatlari yoritilgan; U.Sh.Begimqulov ta'lim jarayonini axborotlashtirishning ilmiy-metodik asoslarini asoslab bergan. Sh.S.Sharipov, R.X.Djurayev ishlarida uzluksiz kasbiy ta'lim, O.Musurmonova tadqiqotlarida esa milliy qadriyatlarning shaxs kompetentligini shakllantirishdagi o'rni tahlil qilingan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kompetentlikning mohiyati va tuzilmasi yetarlicha o'rganilgan, biroq pedagogik ta'lim tizimining o'zida mavjud bo'lgan – mazmuniy, texnologik, tashkiliy, raqamli va sotsial-hamkorlikka oid – imkoniyatlarni yaxlit tizim sifatida tasniflash va ularni o'zaro bog'lash masalasi yetarlicha ishlab chiqilmagan. Mazkur maqolada aynan shu bo'shliqni to'ldirishga harakat qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda nazariy va empirik metodlar majmuidan foydalanildi. Nazariy metodlar: ilmiy-pedagogik, psixologik va me'yoriy manbalarni qiyosiy-tahliliy o'rganish, tushunchalarni tizimlashtirish va umumlashtirish, pedagogik modellash, tuzilmaviy-funksional tahlil. Kompetentlik tuzilmasini aniqlashda tizimli, faoliyatli, shaxsga yo'naltirilgan va aksiologik yondashuvlar metodologik asos qilib olindi.

Empirik metodlar: bo'lajak o'qituvchilar va amaliyotchi pedagoglar o'rtasida so'rovnoma o'tkazish, kuzatish, pedagogik amaliyot hujjatlarini tahlil qilish, ekspert baholash, suhbat hamda pedagogik tajriba-sinov. Kompetentlik darajasini baholashda uchta mezon – motivatsion-qadriyatli, kognitiv-texnologik va reflektiv-kommunikativ mezonlar hamda ularga mos ko'rsatkichlar tizimi ishlab chiqildi; har bir mezon bo'yicha yuqori, o'rta va past darajalar ajratildi.

Olingan ma'lumotlarga matematik-statistik ishlov berishda foizli taqsimot, o'rtacha arifmetik qiymat, o'sish dinamikasi koeffitsienti hamda natijalar farqining ishonchligini tekshirish uchun Student t-mezonidan foydalanildi. Tajriba-sinov ishlari pedagogik yo'nalishlarda tahsil olayotgan talabalar ishtirokida, nazorat va tajriba guruhlarini qiyoslash asosida tashkil etildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Kompetentlik tushunchasining mohiyati va pedagogik talqini. Tahlil natijalari «kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalarini farqlash zaruratini tasdiqlaydi. Kompetensiya — muayyan faoliyat sohasida shaxsga qo'yiladigan tashqi, ob'ektiv talablar majmui, ya'ni ta'lim natijasining me'yoriy modeli. Kompetentlik esa — shaxsning ushbu talablarni o'z bilimi, tajribasi, qadriyatlari va shaxsiy sifatlari orqali o'zlashtirgan, real faoliyatda namoyon etadigan integrativ sifatidir. Boshqacha aytganda, kompetensiya o'rganiladi, kompetentlik esa shakllanadi va namoyon bo'ladi.

Bu farqlash pedagogik ta'lim uchun amaliy ahamiyatga ega: o'quv rejasida kompetensiyalarni ro'yxatlash — bu hali kompetentlikni shakllantirish emas. Kompetentlik faqat talaba mustaqil qaror qabul qilishi, tanlov qilishi va o'z faoliyati natijasi uchun mas'uliyatni his qilishi talab etiladigan real yoki real vaziyatga maksimal yaqinlashtirilgan sharoitlardagina rivojlanadi. Shu sababli kompetentlikka yo'naltirilgan ta'limning asosiy birligi — o'quv topshirig'i emas, balki kasbiy-pedagogik vaziyat (keys, muammo, loyiha, sinf jarayoni fragmenti) hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligi tuzilmasi ko'p komponentli tizim sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqot doirasida uning quyidagi komponentlari ajratildi (1-jadval).

1-jadval. Bo'lajak o'qituvchi kasbiy kompetentligining tarkibiy komponentlari

Komponent	Mazmuniy tavsifi	Namoyon bo'lish ko'rsatkichlari
Motivatsion-qadriyatli	Pedagogik kasbga barqaror qiziqish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqat, kasbiy mas'uliyat	Kasb tanlovi motivlarining barqarorligi, o'quvchiga qadriyat sifatida munosabat, kasbiy etika normalariga rioya
Kognitiv (nazariy)	Fan asoslari, pedagogika, psixologiya va xususiy	Bilimlarning to'liqligi, tizimlilik, fanlararo

Komponent	Mazmuniy tavsifi	Namoyon bo'lish ko'rsatkichlari
	metodika bo'yicha tizimli bilimlar	bog'lanishlarni anglash, muammoni nazariy asoslash
Faoliyatli- texnologik	Ta'lim jarayonini loyihalash, tashkil etish va boshqarish ko'nikmalari	Dars ishlanmasini tuzish, metod tanlash, vaqtni boshqarish, differensial yondashuvni qo'llash
Kommunikativ	Pedagogik muloqot, hamkorlik va nizolarni bartaraf etish qobiliyati	Nutq madaniyati, faol tinglash, ota-onalar va hamkasblar bilan samarali muloqot
Raqamli-axborot	Raqamli ta'lim resurslaridan metodik maqsadda foydalanish	Elektron resurs yaratish, LMS bilan ishlash, axborotni tanqidiy baholash, raqamli xavfsizlik
Refleksiv- baholash	O'z faoliyatini tahlil qilish, baholash va takomillashtirish	O'z-o'zini baholashning adekvatligi, xatoni tan olish, kasbiy o'sish rejasini tuzish

2. Pedagogik ta'lim tizimidagi imkoniyatlarning tasnifi. Tadqiqot davomida kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari manbasi va ta'sir doirasiga ko'ra beshta guruhga ajratildi: me'yoriy-tashkiliy, mazmuniy, texnologik, amaliyot-integrativ va baholash-refleksiv imkoniyatlar (2-jadval).

Me'yoriy-tashkiliy imkoniyatlar oliy ta'lim muassasalariga berilgan akademik mustaqillik bilan bog'liq. O'quv rejalarini mustaqil shakllantirish, tanlov fanlari ulushini oshirish, individual ta'lim traektoriyasini yo'lga qo'yish, kredit-modul tizimida talabaning mustaqil ishiga ajratilgan soatlarni maqsadli boshqarish — bularning barchasi

kompetentlikni rivojlantirishning tashkiliy zaminini yaratadi. Ayni paytda bu imkoniyat ko'pincha rasmiy tarzda qo'llanilmoqda: tanlov fanlari amalda majburiy tarzda taqsimlanmoqda, mustaqil ish esa referat tayyorlashga qisqartirilmoqda.

Mazmuniy imkoniyatlar o'quv fanlari mazmunini kasbiy vazifalar mantiqiga muvofiq qayta qurish bilan bog'liq. Bunda fanlararo integratsiya (pedagogika – psixologiya – xususiy metodika – mutaxassislik fani), o'quv materialini modullashtirish, har bir modul yakunida aniq, o'lchanadigan ta'lim natijasini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Milliy-madaniy mazmunning integratsiyasi — mumtoz pedagogik meros, mahalliy ijtimoiy kontekst, oila va mahalla bilan hamkorlik tajribasining o'quv materialiga singdirilishi — bo'lajak o'qituvchining qadriyatli komponentini mustahkamlaydi.

Texnologik imkoniyatlar zamonaviy pedagogik texnologiyalarni maqsadli qo'llashni nazarda tutadi. Muammoli ta'lim, keys-stadi, loyiha metodi, rolli va ishbilarmonlik o'yinlari, munozara va debat texnologiyalari, «teskari sinf» modeli, mikro-o'qitish (microteaching) kabi texnologiyalar talabani passiv tinglovchidan faol subyektga aylantiradi. Ayniqsa mikro-o'qitish samarali hisoblanadi: talaba qisqa o'quv fragmentini o'z guruhdoshlariga o'tadi, jarayon videoga yoziladi, so'ngra jamoaviy tahlil va refleksiya o'tkaziladi. Bu usul nazariy bilimni bevosita amaliy harakatga aylantirish va o'z-o'zini baholash ko'nikmasini shakllantirish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar alohida imkoniyatlar manbaidir: elektron ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar, ochiq ta'lim resurslari, simulyatsion muhitlar va sun'iy intellektga asoslangan vositalar talabaga vaqt va makon chegarasidan qat'i nazar ta'lim olish, o'z natijalarini kuzatib borish imkonini yaratadi. Biroq raqamli vositalar kompetentlikni avtomatik shakllantirmaydi: ular metodik jihatdan asoslangan tarzda, aniq pedagogik maqsadga bo'ysundirilgan holda qo'llanilgandagina samara beradi.

Amaliyot-integrativ imkoniyatlar «oliy ta'lim muassasasi – maktab» hamkorligining chuqurlashtirilishi bilan bog'liq. Uzluksiz pedagogik amaliyot, dual

ta'lim elementlari, tayanch maktablar bazasida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, tajribali o'qituvchilarni mentor sifatida jalb qilish, ta'lim klasteri modeli — bularning barchasi talabaning real kasbiy muhitga bosqichma-bosqich kirib borishini ta'minlaydi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, amaliyot muddatining uzayishi emas, balki uning nazariy kurslar bilan uzviy bog'langanligi va sifatli mentorlik qo'llab-quvvatlovi hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Baholash-refleksiv imkoniyatlar baholash tizimini natijaga yo'naltirish orqali ro'yobga chiqadi. Kompetentlikni an'anaviy test yoki og'zaki so'rov orqali to'liq o'lchash mumkin emas. Buning uchun mezonli baholash rubrikalari, kasbiy portfolio, kompleks vaziyatli topshiriqlar, loyiha himoyasi, o'zaro (peer) baholash va o'z-o'zini baholash varaqalari kabi vositalar zarur. Formativ baholashning kuchaytirilishi talabaga o'z rivojlanish dinamikasini ko'rish va uni boshqarish imkonini beradi.

2-jadval. Pedagogik ta'lim tizimida kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari va ularni ro'yobga chiqarish mexanizmlari

Imkoniyatlar guruhi	Ro'yobga chiqarish mexanizmlari	Kutilayotgan natija
Me'yoriy-tashkiliy	Akademik mustaqillik, kredit-modul tizimi, individual ta'lim traektoriyasi, tanlov fanlari	Talabaning ta'lim mazmunini tanlashdagi subyektligi, mas'uliyatning ortishi
Mazmuniy	Fanlararo integratsiya, modullashtirish, milliy-madaniy mazmunning singdirilishi	Bilimlarning yaxlitligi va kasbiy vazifalarga yo'naltirilganligi
Texnologik	Muammoli ta'lim, keys-stadi, loyiha metodi, mikro-o'qitish, «teskari sinf»	Bilimning amaliy harakatga aylanishi, faol o'rganish tajribasi

Imkoniyatlar guruhi	Ro'yobga chiqarish mexanizmlari	Kutilayotgan natija
Raqamli	Elektron platformalar, ochiq ta'lim resurslari, simulyatsiya, raqamli portfolio	Mustaqil o'rganish va axborot bilan ishlash kompetensiyasi
Amaliyot-integrativ	Uzluksiz amaliyot, ta'lim klasteri, mentorlik, dual ta'lim elementlari	Kasbiy muhitga moslashuv, real vaziyatlarda harakat qilish tajribasi
Baholash-refleksiv	Mezonli rubrikalar, portfolio, formativ baholash, o'z-o'zini baholash	Refleksiv kompetentlik, kasbiy o'sish rejasini mustaqil tuzish

3. Imkoniyatlarni ro'yobga chiqarishning pedagogik shart-sharoitlari. Yuqorida sanab o'tilgan imkoniyatlar o'z-o'zidan samara bermaydi. Tadqiqot natijalari ularni amalga oshirish uchun quyidagi shart-sharoitlar majmui zarurligini ko'rsatdi: birinchidan, professor-o'qituvchilarning o'zida kompetentlikka yo'naltirilgan ta'limni loyihalash bo'yicha metodik tayyorgarlikning mavjudligi; ikkinchidan, ta'lim natijalari, o'quv topshiriqlari va baholash mezonlari o'rtasida konstruktiv muvofiqlikning (constructive alignment) ta'minlanishi; uchinchidan, talabani mustaqil ishini tashkil etish va uni metodik qo'llab-quvvatlash tizimining yo'lga qo'yilishi; to'rtinchidan, ta'lim muhitida psixologik xavfsizlikning, ya'ni talaba xato qilishdan qo'rqmasdan sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishining ta'minlanishi.

Alohida ta'kidlash joizki, kompetentlikni rivojlantirish jarayoni bosqichli xarakterga ega. Adaptiv bosqichda (1–2-kurs) talabada kasbga qiziqish va tayanch bilimlar shakllanadi; modellashtiruvchi bosqichda (2–3-kurs) o'quv-kasbiy vaziyatlarda harakat qilish tajribasi orttiriladi; kasbiy-amaliy bosqichda (3–4-kurs) real ta'lim

muhitida mustaqil faoliyat tajribasi to'planadi va refleksiv qobiliyat mustahkamlanadi. Har bir bosqich uchun mos texnologiya va baholash vositalarini tanlash kompetentlik rivojlanishining uzluksizligini ta'minlaydi.

4. Tajriba-sinov natijalari. Ishlab chiqilgan yondashuvning samaradorligini tekshirish maqsadida tajriba-sinov ishlari o'tkazildi. Tajriba guruhida o'quv jarayoni yuqorida asoslangan imkoniyatlarni kompleks tarzda ro'yobga chiqarish asosida (mikro-o'qitish, keys-topshiriqlar, loyiha ishlari, portfolio va mezonli baholash) tashkil etildi; nazorat guruhida esa an'anaviy tartib saqlab qolindi. Natijalar 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval. Tajriba-sinov ishlari natijalarining qiyosiy ko'rsatkichlari (%)

Kompetentlik darajasi	Nazorat guruhi (boshlanish)	Nazorat guruhi (yakun)	Tajriba guruhi (boshlanish)	Tajriba guruhi (yakun)
Yuqori	12,4	16,8	13,1	34,6
O'rta	38,2	43,6	37,5	51,2
Past	49,4	39,6	49,4	14,2

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tajriba guruhida yuqori darajadagi talabalar ulushi 21,5 foiz punktga ortgan, past darajadagilar ulushi esa 35,2 foiz punktga kamaygan. Nazorat guruhidagi o'zgarishlar ham ijobiy, biroq sezilarli darajada kam. Farqning statistik ishonchliligi Student t-mezoni yordamida tekshirilib, tasodifiy emasligi tasdiqlandi. Bu natijalar imkoniyatlarni alohida-alohida emas, balki yaxlit tizim sifatida ro'yobga chiqarish samaraliroq ekanini ko'rsatadi.

Sifat tahlili shuni ko'rsatdiki, eng sezilarli o'sish refleksiv-baholash va faoliyatli-texnologik komponentlarda kuzatilgan. Talabalar o'z dars ishlanmalarini mustaqil tahlil qilish, metod tanlovini asoslash va xatolarini aniqlash qobiliyatida ilgarilash namoyon etgan. Motivatsion-qadriyatli komponentdagi o'zgarishlar esa nisbatan sekin kechgan,

bu mazkur komponentning shakllanishi uzoqroq vaqt va real kasbiy muhit ta'sirini talab qilishidan dalolat beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot quyidagi xulosalar chiqarish imkonini berdi.

Birinchidan, kompetentlik pedagogik ta'lim natijasining integrativ ko'rsatkichi bo'lib, u bilim, ko'nikma, qadriyatli munosabat va reflektiv tajribaning yaxlitligi sifatida namoyon bo'ladi. Kompetensiyani me'yoriy talab, kompetentlikni esa shaxs sifatida farqlash ta'lim jarayonini loyihalashda metodologik ahamiyatga ega.

Ikkinchidan, pedagogik ta'lim tizimida kompetentlikni rivojlantirishning imkoniyatlarini beshta guruhga — me'yoriy-tashkiliy, mazmuniy, texnologik, amaliyot-integrativ va baholash-reflektiv imkoniyatlarga ajratish maqsadga muvofiq. Ular o'zaro bog'liq bo'lib, faqat kompleks tarzda qo'llanilgandagina kutilgan natijani beradi.

Uchinchidan, mavjud imkoniyatlarning amalda to'liq ro'yobga chiqmasligining asosiy sabablari — kompetentlikka yo'naltirilgan ta'limning rasmiy talqin qilinishi, ta'lim natijalari bilan baholash mezonlari o'rtasidagi muvofiqlikning yetishmasligi hamda professor-o'qituvchilarning metodik tayyorgarligidagi bo'shliqlardir.

To'rtinchidan, kompetentlikni rivojlantirish bosqichli jarayon bo'lib, har bir bosqich (adaptiv, modellashtiruvchi, kasbiy-amaliy) o'ziga xos texnologiya, topshiriq turi va baholash vositalarini talab etadi.

Beshinchidan, tajriba-sinov natijalari imkoniyatlarni tizimli ro'yobga chiqarish bo'lajak o'qituvchilar kompetentligi darajasini sezilarli oshirishini tasdiqladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib quyidagi takliflar ilgari suriladi: o'quv rejalari va fan dasturlarini ta'lim natijalari, o'quv topshiriqlari va baholash mezonlarining konstruktiv muvofiqligi tamoyili asosida qayta ko'rib chiqish; mikro-o'qitish va kasbiy portfolio texnologiyalarini pedagogik yo'nalishlarda majburiy element sifatida joriy etish; oliy ta'lim muassasasi va umumta'lim maktablari o'rtasida mentorlikka asoslangan barqaror hamkorlik modelini yo'lga qo'yish; professor-o'qituvchilar uchun

kompetentlikka yo'naltirilgan baholash bo'yicha muntazam metodik seminarlar tashkil etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. – Toshkent, 2020-yil 23-sentyabr, O'RQ-637-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. – Toshkent, 2023-yil 11-sentyabr, PF-158-son.
3. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge: MIT Press, 1965. – 251 p.
4. Hymes D. On Communicative Competence // Sociolinguistics / Ed. by J.B.Pride, J.Holmes. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 269–293.
5. McClelland D.C. Testing for Competence Rather Than for «Intelligence» // American Psychologist. – 1973. – Vol. 28, №1. – P. 1–14.
6. Raven J. Competence in Modern Society: Its Identification, Development and Release. – Oxford: Oxford Psychologists Press, 1984. – 251 p.
7. Hutmacher W. Key Competencies for Europe: Report of the Symposium. – Berne: Council for Cultural Cooperation, 1997. – 72 p.
8. Shulman L.S. Those Who Understand: Knowledge Growth in Teaching // Educational Researcher. – 1986. – Vol. 15, №2. – P. 4–14.
9. Darling-Hammond L. Constructing 21st-Century Teacher Education // Journal of Teacher Education. – 2006. – Vol. 57, №3. – P. 300–314.
10. Redecker C. European Framework for the Digital Competence of Educators: DigCompEdu. – Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2017. – 95 p.
11. TALIS 2018 Results (Volume I): Teachers and School Leaders as Lifelong Learners. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 224 p.
12. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. – 2003. – №2. – С. 58–64.
13. Зимняя И.А. Ключевые компетенции – новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. – 2003. – №5. – С. 34–42.
14. Зеер Э.Ф. Психология профессионального образования. – Москва: Академия, 2009. – 384 с.
15. Муслимов Н.А. ва бошқалар. Касбий таълим ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологияси. – Тошкент: «Фан ва технология», 2013. – 240 б.
16. Ишмухамедов Р.Ж., Юлдашев М. Таълим ва тарбияда инновацион педагогик технологиялар. – Тошкент: «Ниҳол», 2013. – 279 б.
17. Усмонбоева М.Ҳ. Педагогик технология асослари. – Тошкент: ТДПУ, 2010. – 156 б.